2034-yilga kelib o‘ta yuqori molekulyar polietilen bozori hajmi 11,95 milliard dollarga yetishi mumkin

// 08.09.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/2034-yilga-kelib-o-ta-yuqori-molekulyar-polietilen-bozori-ha



2024-yilda jahon bozorida o‘ta yuqori molekulyar polietilen (O‘YUMP) hajmi 2,73 milliard dollarni tashkil etdi. 2025-yilda ushbu bozor 3,16 milliard dollarga yetishi kutilmoqda va prognozlarga ko‘ra, 2034-yilgacha 11,95 milliard dollargacha o‘sishi mumkin. Bu esa o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 15,91% bo‘lishini anglatadi, deb xabar berdi Verified Market Reports agentligi o‘z tadqiqotida.

2024-yilda eng katta daromad ulushi Shimoliy Amerikaga to‘g‘ri kelgan – 41%. Bu esa mintaqaning qudratli mudofaa sanoati va rivojlangan sog‘liqni saqlash tizimi bilan izohlanadi. Mintaqa kuchli sanoat bazasiga ega bo‘lib, bu O‘YUMPning turli sohalarda qo‘llanilishini kengayishiga yordam bermoqda.

Hisobotga ko‘ra, yaqin yillarda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi eng tez o‘sadigan bozorga aylanishi kutilmoqda. Bu asosan tez industriallashuv va turli sohalarda mustahkam, yengil materiallarga bo‘lgan talabning ortishi bilan bog‘liq.

Mudofaa byudjetlarining o‘sishi va infratuzilma rivoji ham muhim omillar hisoblanadi. Yevropa esa innovatsiyalar, barqaror rivojlanish va yuqori muhandislik standartlariga bo‘lgan e’tibor tufayli katta salohiyatga ega hudud sifatida baholanmoqda.

O‘YUMP bozorining o‘sishi tibbiyot, aerokosmik, mudofaa va sanoat sohalarida ushbu materialga bo‘lgan talab ortishi bilan bog‘liq. Materialning ajoyib mexanik xususiyatlari, mustahkamligi, yuqori zarbaga chidamliligi va ishqalanishga qarshi turish qobiliyati uning ommalashuviga turtki bermoqda. Tibbiy maqsadlarda biomoslik xususiyati va yengil vazn ham materialning jozibadorligini oshiradi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati